

## TILSHUNOSLIKDA EKSPRESSIV VOSITALARNING TADQIQI XUSUSIDA

*M. Ergashev<sup>1</sup>*

*Annotatsiya:*

Ushbu maqola tilda his-tuyg'ular, munosabat va izhorlarni yetkazish uchun qo'llaniladigan turli xil vositalar va usullarni har tomonlama tahlil qilishni maqsad qilgan tilshunoslikdagi ekspressiv vositalarning murakkab sohasi o'rganiladi. Ekspressiv vositalar muloqotning muhim elementlaridan biri bo'lib, so'zlovchi va yozuvchilarga o'z so'zlarini tom ma'noda talqin qilishdan tashqari ma'no qatlamlari bilan yetkazish imkonini beradi. Bundan tashqari, maqolada ekspressiv vositalar haqidagi turlicha ta'riflar o'rganiladi.

*Kalit so'zlar:* ekspressiv vositalar, ekpressiya, ekspressivlik, stilistika, tilshunoslik, til ifodasi.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/yvmnds27>

---

Kirish. Nutqning ekspressivligi va uning namoyon bo'lishi tilshunoslikning asosiy va muhim muammolaridan biridir. Chunki u so'zlovchining tinglovchiga va nutqning mazmuniga hissiy munosabati bilan bog'liq. Muloqot qiluvchilarning psixologik holatini ifodalovchi ekspressiv vositalar shaxslararo muloqot jarayonida alohida ijtimoiy ahamiyatga ega. Ammo ularni o'rganish sohasidagi ba'zi muvaffaqiyat va yutuqlarga qaramay, nutq subyektining ekspressiv ma'noda mujassamlashgan mohiyatini, muloqotchilarning o'zaro ta'sirini, kommunikativ vaziyatning ta'sirini o'rganish bilan to'ldirilishi kutilayotgan ko'plab kamchiliklar mavjud.

Lotin tilidan tarjima qilingan (*expressio*) "ifoda, ifodalilik" degan ma'noni anglatadigan "ekpressiya" tushunchasi fikr va his-tuyg'ularni ifodalashning o'ziga xos usuli bo'lib, "ekspressivlik" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. "Ekspressiya" so'zining tarjimasi - "ifoda" ekspressiv lingvistik vositalarning ekspressiv imkoniyatini ko'rsatadi, ya'ni ulardan maxsus stilistik vositalar sifatida foydalanish imkoniyatini ochib beradi. Tadqiqot ishlarida "ekpressiya", "ekspressiv" va "ekpressivlik" so'zlari keng qo'llaniladi. Ekspressivlikning lingvistik mexanizmi turli darajadagi lingvistik birliklardan foydalanishda stereotiplardan chetga chiqishdir [1].

Ekspressivlik, ekspressiv vositalar haqida tilshunoslikning turli yo'nalishlarida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Olimlar o'zlarining nuqtai nazarlari bilan mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlarini namoyon qilishgan. Misol uchun rus tilshunosi B.Toshovichning fikricha, ekspressivlik - stilistika, tilshunoslik kategoriyasi, sifatida shakl, semantik, vazifaviy va kategorik birliklarning bir jinsli va geterogen aloqalarini qamrab oladi. Shuningdek, so'zlovchining suhbatdoshga yoki sub'ektga ongli, maqsadli, subyektiv, emotsional va estetiklashtirilgan munosabatini

---

<sup>1</sup> *Ergashev Mirsaid Baxtiyor o'g'li, Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi*

aks ettiradi va ifodalaydi. Bundan tashqari ta'sir qilish funksiyasiga ega hamda aloqa jarayonida ta'kidlash, mustahkamlash, aktualashtirish uchun xizmat qiladi [5].

"Ekspressivlik - so'z yoki frazeologik birlikning tasviriylilik, intensivlik yoki emotivlik tufayli ifodalangan va ko'chma xususiyatidir" [3]. A.V. Kunin, boshqa ko'plab tilshunos olimlar singari, ekspressivlikni intensivlik bilan bog'liq holda tavsiflaydi. Shu bilan birga, tilshunos bu ikki tushunchani sinonim emasligini ta'kidlaydi. Uning nuqtai nazarida, intensivlik "frazeologik birliklarning o'zlari belgilagan obyektlarning belgilarini kuchaytirish xususiyatidir".

V.N. Vakurov ekspressiv vositalarning ma'nolarining uch turini tasniflaydi. bular: 1) miqdoriy ifodali ma'nolar; 2) sifat ifodali ma'nolari; 3) sifat-miqdoriy ifodali ma'nolardir [2].

Tilshunoslikka oid ensiklopedik lug'atlarda ekspressivlikka quyidagicha ta'rif beriladi: til birligining kommunikativ aloqa paytida so'zlovchining nutq mazmuni yoki adresatiga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalash vositasi sifatida xizmat qila olishini ta'minlaydigan semantik-stilistik alomatlar majmuidir" [6]. Ekspressiya so'zining to'g'ridan-to'g'ri tarjimasini - "ifoda" til vositalarining ham ifodalilik imkoniyatlari, xam maxsus stilistik usul sifatidagi ekspressivligi hakida fikr uyg'otadi. Bu fikrga ekspressivlik va emotsionallikning tildagi qorishuviga asoslanadigan boshqa bir nuqtai nazar qarama-qarshi turadi.

Ekspressivlikni pragmatik kategoriyalarga mansub deb hisoblaydigan D.S. Pisarevaning qayd etishicha, tadqiqotlarning barchasida ham "emotsionallik" va "ekspressivlik" tushunchalari aniq farqlanmaydi. "Emotsionallik" va "ekspressivlik" kategoriyalari o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, ular orasidagi asosiy farq quyidagicha bo'ladi: agar emotsionallikning asosiy funksiyasi tildan tashqaridagi borliq obyektlarini hissiy baholash bo'lsa, ekspressivlik - fikr, ifodalilikning ta'sirchanlik kuchi nuqtai nazaridan tinglovchiga maqsadli ta'sir o'tkazishdir. Shunday kilib, ekspressivlik - bu adresatga yo'nalgan, ya'ni pragmatik ahamiyatga ega kategoriyadir [4].

I.R. Galperning fikricha tilning ekspressiv vositalariga quyidagilar kiradi: adabiy va kitob lug'ati, neologizmlar, chet tili qo'shimchalari, qisqartmalar, so'zlashuv va emotsional rangdagi lug'atlar, obrazli frazeologik birliklar, yo'llar va raqamlar va boshqalar. T.G. Dobrosklonskayaning nuqtai nazarida esa ekspressivlik "yozma" va "elektron" matbuot matnlarining tipologik va funktsional xususiyati bo'lib, ular to'rtta funktsional janrga bo'linadi: yangiliklar, axborot tahlili va sharhi, jurnalistika va reklama.

Umuman olganda tilshunoslikda ekspressivlik haqida turlicha tadqiqotlar olib borilgan, ularning natijasida xar xil ta'rif va tasniflar ishlab chiqilgan. Lekin shunga qaramay hali-hanuz ekspressivlik haqida yakdil bir fikrga kelinmagan.

Tilning ekspressiv vositalari - bu gapni urg'uli yoki ifodali qilish imkoniyatiga ega bo'lgan lingvistik shakllar va xususiyatlardir. Ekspressiv vositalar barcha darajalarda - fonetik, grafik, morfologik, leksik yoki sintaktik bo'lishi mumkin. Ovoz balandligi, pauzalar, mantiqiy urg'u, chizma yoki talaffuz kabi fonetik hodisalarning barchasi ekspressivdir.

Kichraytiruvchi qo'shimchalar kabi morfologik shakllar ekspressiv ta'sir ko'rsatadi: *girlie*, *piggy*, *doggy* va boshqalar. Muallifning so'zsiz so'zlari: *He glastnosed his love affair with this movie star.*

Leksik ekspressiv vositalar kuchaytirgichlar bilan ifodalanadi - awfully, terribly, absolutely va hokazo. Yoki qat'iy qo'llanilganda mantiqiy ma'nosini saqlab qolgan so'zlar: a very special evening (event/gift/friend).

Ekspressivlik ifodalanadigan grammatik shakllar va sintaktik qoliplar: I do know you! I'm really angry with that dog of yours\ If only I could help you!

Stilistik vositalar - bu adabiy model bo'lib, unda semantik va strukturaviy xususiyatlar aralashtiriladi, shunda stilistik qurilma umumlashtirilgan naqshni ifodalaydi. Ba'zi ekspressiv vositalar stilistik vositalarga jalb qilingan, ba'zi bir umumiy semantik ma'noni ma'lum bir lisoniy shakl bilan birlashtirib, stilistik ta'sir ko'rsatadi. Bu ekspressiv maqsadda qo'llaniladigan algoritmgaga o'xshaydi. Lug'at va so'zlarning kontekstual ma'nolarining o'zaro ta'siri yoki to'qnashuvi metafora, metonimiya yoki ironiya kabi stilistik vositalarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlash kerakki, til nafaqat insonlarning yuzidagi his-tuyg'ularni idrok etishni o'zgartiribgina qolmay, balki ularning o'z tanasidagi hissiy tuyg'ularni qanday boshdan kechirishini va tartibga solishini ham boshqaruvchi omil sanaladi. Shunday ekan, ekspressiv vositalar so'zlovchining nutqiga tasirchanlikni qo'shish, oshirish kabi vazifalarni bajaradi. Lingvistik muloqot jarayonida his-tuyg'ular, munosabatlar va nuanslarni ifodalash uchun ishlatiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. *Александрова О.В. Проблемы экспрессивного синтаксиса. На материале английского языка: уч. пособие. /О.В. Александрова. – Либроком, 2009.– 216 с.*

[2]. *Вакуров В.Н. Основы стилистики фразеологической единицы. М., 1983.*

[3]. *Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М., 1996.*

[4]. *Писарев Д.С. Функционирование восклицательных предложений в современном французском языке и их прагматический аспект // Прагматические аспекты функционирования языка. – Барнаул: Изд-во АГУ, 1983.-С. 114-125.*

[5]. *Тошович Б. Экспрессивный синтаксис глагола русского и сербско-хорватского языков. – М.: Языки славянской культуры, 2006. – 560 с.*

[6]. *<http://Hn&visticheskiv-slovar.ru/description/ekspressivnost/745>*